

**Yangiyer Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi 2-kasbiy  
fanlar kafedrasi mudiri, Bosh  
o‘qtuvchi Baratova Xurbibi taqrizi  
ostida**

**Mamiraliyev No‘monjon Imomali o‘g‘li**  
Yangiyer Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan  
yetakchi o‘qtivchisi  
Telefon raqami +99893 621 05 03  
E-mail: [nmamiraliyev@gmail.com](mailto:nmamiraliyev@gmail.com)

---

## **PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMIDA GURUH RAHBARLIGINING AHAMIYATI, MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI**

**Annotatsiya.** Professional ta’lim tizimida guruh rahbarligi ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu lavozim nafaqat talabalarning o‘qishidagi yutuqlarni kuzatib borish, balki ularning ma’naviy, axloqiy va shaxsiy rivojlanishiga ham mas’uliyatli bo‘lishni talab qiladi. Guruh rahbarlari ta’lim jarayonining asosiy bog‘lovchi bo‘g‘ini bo‘lib, ular ta’lim muassasasining maqsad va vazifalarini talabalar orasida tatbiq etishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Mazkur maqolada guruh rahbarligining ahamiyati, yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari batafsil tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlari:** Professional ta’lim, Guruh rahbari, talaba.

## **ЗНАЧЕНИЕ, ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ РУКОВОДСТВА ГРУППОЙ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация.** В системе профессионального образования кураторство группы является неотъемлемой частью образовательного процесса. Эта должность требует не только наблюдения за успехами студентов в учебе, но и ответственности за их духовное, моральное и личностное развитие. Кураторы групп выступают основным связующим звеном образовательного процесса, играя важную роль в реализации целей и задач учебного заведения среди студентов.

В данной статье подробно анализируются значение кураторства, возникающие проблемы и пути их решения.

**Ключевые слова:** Профессиональное образование, куратор группы, студент.

## **THE IMPORTANCE, CHALLENGES, AND SOLUTIONS FOR GROUP LEADERSHIP IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM**

**Annotation.** In the professional education system, group supervision is an integral part of the educational process. This position requires not only monitoring students' academic achievements but also being responsible for their spiritual, moral, and personal development. Group supervisors act as the main connecting link in the educational process, playing an important role in implementing the goals and objectives of the educational institution among students.

This article provides a detailed analysis of the significance of group supervision, the challenges faced, and the ways to address them.

**Keywords:** Professional education, group supervisor, student.

---

**Professional ta’lim tizimida guruh rahbarligining ahamiyati:**

1. Shaxsiy rivojlanish: Guruh rahbarlari talabalarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ro’l o‘ynaydi. Ular talabalarning o‘z salohiyatini shakkilantirish, rivojlantirishda va namoyon etishiga yordam beradi. Shuningdek, asosiy kasbga yo‘nlatirivchi unga nisbatan qiziqish uyg‘otuvchi, keyinchalik sohasini qanday davom ettirishida maslahatchi shaxs sifatida faoliyat olib boradi.
2. Ta’lim va tarbiya uyg‘unligi: Ta’lim tizimida guruh rahbari o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida aloqa o‘rnatib, ta’lim jarayonini muvofiqlashtiradi. Bu talabalarning faolligini oshirishda va ularda ijobji xulq-atvorni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Muloqotni yaxshilash: Guruh rahbari talabalar, ularning ota-onalari va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni samarali yo‘lga qo‘yadi. Bu hamkorlik ta’lim jarayonining sifatini oshiradi. Shuningdek, ota-onalarning farzandlari tabariyasi va qay darajada bilim olayotganini ta’lim muassasasida qanday ekanligida xabardor bo‘lishini ta’minlaydi.

**Yuzaga keladigan muammolar:**

1. Yuqori ish yuklamasi: Guruh rahbarlari ko‘p hollarda qo‘sishimcha mas’uliyatlar bilan yuklanadi. Bu esa ularga o‘z vazifalarini to‘liq bajarishda qiyinchilik tug‘diradi.
2. Moliya va rag‘batlantirish yetishmovchiligi: Ko‘plab ta’lim muassasalarida guruh rahbarlarining mehnati yetarlicha rag‘batlantirilmaydi. Bu esa ularning motivatsiyasini pasaytiradi.
3. Psixologik yordam yetishmovchiligi: Talabalarning turli yoshdagi psixologik muammolari guruh rahbarlari uchun katta sinov bo‘lishi mumkin. Bu sohada malaka yetishmovchiligi ta’lim sifatiga, guruh rahbari va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir qiladi.
4. Resurslarning cheklanganligi: Guruh rahbarlari uchun zamonaviy o‘quv-metodik materiallar, aniq belgilab qo‘yilgan vazifalar majmasi yetishmasligi ularning ishini murakkablashtiradi.

**Kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari:**

1. Qo‘sishimcha ta’lim va malaka oshirish: Guruh rahbarlariga muntazam ravishda treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Bu ularning psixologik va pedagogik bilimlarini oshirishga yordam beradi.
2. Motivatsiyani oshirish: Guruh rahbarlarining ish haqi va rag‘batlantirish tizimini yaxshilash zarur. Bu ularda ishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.
3. Texnologik ta’motni kuchaytirish: Guruh rahbarlarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar, aniq belgilab qo‘yilgan vazifalar majmuasi bilan ta’minlash.
4. Muloqotni kuchaytirish: Talabalar, ularning ota-onalari va ta’lim muassasasi xodimlari bilan rejali uchrashuvlar tashkil etish orqali hamkorlikni rivojlantirish zarur, bu orqali nafaqat talabalarning ilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ota-onalarning ham o‘z farzandinining ilim olishini nazorat qilish hissini uyg‘otadi va ma’sulyatli bo‘lishini eslatib turadi.

5. Psixologik yordam ko'rsatish: Guruh rahbarlariga psixologlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratish va ularga zarur bo'lgan psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash lozim.

6.Ish yuklamasini optimallashtirish: Guruh rahbarining ish faoliyatidan kelib chiqib ortiqcha mas'uliyatlardan holi etish, topshiriqlarni saralash faqatgina guruh rahbari uchun tegishli mas'uliyatlarni uning zimmasiga yuklash ortiqcha yuklama deb topilgan ishlarni esa maxsus mutaxassisiga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

### **Xulosa**

Guruh rahbarligi professional ta'lim tizimida talabalarning ta'lim olishdagi muvaffaqiyatini ta'minlashda, ularni ma'naviy jihatdan shakllantirishda va jamoada sog'lom muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, guruh rahbarligi sohasida duch kelinadigan muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. O'qituvchilarga yetarli resurslar, treninglar va rag'batlantirish tizimi yaratish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin.

Bu chora-tadbirlar nafaqat guruh rahbarlarining faoliyatini yengillashtiradi, balki butun ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Qayumov A. M., Nazarova G. N. "Pedagogika". T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyeva N. R., Axmedova S. A. "Ta'limda menejment". T.: Fan, 2021.
3. Nigmatov N. "Ta'lim muassasalarini boshqarish". T.: Iqtisod-Moliya, 2019.
4. Nuriddinov D. "Ta'lim boshqaruvi asoslari". T.: Yangi asr avlodi, 2022.
5. Usmonov R. H. "Ta'lim muassasalarida innovatsion boshqaruv". T.: Fan va texnologiya, 2018.
6. Sayfullayev O., Toshmatov S. "Pedagogik mahorat va ta'lim texnologiyalari". T.: Yangi asr avlodi, 2021.